

**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**




SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023-yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023-yil yanvar-mart)



Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi

1 479,1 ming. so'm


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi

68,0 %

Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi

71,9 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 105,8 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (112,9 %) o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)
O'sish sur'ati, %

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq, har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023-yil yanvar-mart)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	6 105,8	100,0	106,5
Samarqand sh.	2 639,2	43,2	107,3
Kattaqo'rg'on sh.	138,5	2,3	106,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	206,4	3,4	105,2
Bulung'ur	162,0	2,6	106,1
Jomboy	258,6	4,2	105,8
Ishtixon	215,1	3,5	105,2
Kattaqo'rg'on	239,0	3,9	105,4
Qo'shrabot	119,5	2,0	105,1
Narpay	200,4	3,3	105,3
Payariq	215,4	3,5	106,2
Pastdarg'om	371,5	6,1	105,7
Paxtachi	134,9	2,2	105,0
Samarqand	409,2	6,7	106,5
Nurobod	121,9	2,0	105,1
Urgut	408,4	6,7	106,1
Toyloq	265,8	4,4	107,1

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(yanvar-mart)

2023-yilning yanvar-mart

oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 479,1** ming so'mga yetdi.

2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,2** % ni tashkil etdi.



— Hajmi, ming so'mda ●— O'sish sur'ati, %

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023-yil yanvar-mart)


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	1 479,1	104,2
Samarqand sh.	4 595,5	105,3
Kattaqo'rg'on sh.	1 478,6	104,4
Oqdaryo	1 216,8	102,7
Bulung'ur	818,0	103,9
Jomboy	1 394,7	103,2
Ishtixon	794,4	102,9
Kattaqo'rg'on	828,3	103,3
Qo'shrabot	857,3	103,0
Narpay	895,4	103,3
Payariq	804,9	103,6
Pastdarg'om	988,6	103,6
Paxtachi	897,9	103,5
Samarqand	1 527,6	104,2
Nurobod	763,5	103,0
Urgut	746,5	103,5
Toyloq	1 228,7	104,5

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2023-yil yanvar-mart)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	6 105,8	100,0	106,5
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	303,6	5,0	126,5
Moliyaviy xizmatlar	1 055,0	17,3	116,6
Transport xizmatlari	1 394,9	22,9	100,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 343,0	22,0	104,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	244,2	4,0	93,3
Savdo xizmatlari	1 700,0	27,8	104,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	147,2	2,4	107,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	262,6	4,3	105,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	118,0	1,9	102,1
Ijara xizmatlari	169,5	2,8	107,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	188,4	3,1	107,1
Shaxsiy xizmatlar	287,8	4,7	106,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	87,6	1,4	107,5
Boshqa xizmatlar	147,0	2,4	109,0

(yanvar-mart)




2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **465,7** mlrd. so'mga oshib, **1 055,0** mlrd. so'mga yetdi. Ushbu xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **17,3** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning jami o'sish sur'ati **116,6** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023-yil yanvar-mart)

2023-yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **92,6** % ni tashkil etdi.



(yanvar-mart)

2023-yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi **1 394,9** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022-yil yanvar-mart oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **100,1 %** ni tashkil etdi.




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **975** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **2,2 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi

(2023-yil yanvar-mart)



(yanvar-mart)



2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning oʻsish surʻati **104,0 %** ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **22,0 %** ni tashkil etdi.

— Hajmi, mlrd. soʻmda ● ⇒ Oʻsish surʻati, %

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.


2023-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 343,0** mlrd. soʻmga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yoʻlovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi (**71,5 %**).

Taqqoslash


uchun: **2022-yilning yanvar-mart** oylarida ushbu koʻrsatkich **71,3 %** ni tashkil etgan.



(yanvar-mart)

2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **2023-yil yanvar-mart** oylarida savdo xizmatlari hajmi **574,3** mlrd. soʻmga oshib, **1 700,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʻati **104,8 %** ga yetdi.




— Hajmi, mlrd. soʻmda ●⇒ Oʻsish surʻati, %

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023-yil 1-aprel holatiga koʻra xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida ularning savdo faoliyati bilan shugʻullanuvchi ulushi (**36,6 %** yoki **16,0** ming dona) ustunlik qiladi.

(yanvar-mart)



2023-yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **303,6** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,5** % ni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **677** birlikka yetdi, ularning umumiy sonining **1,5** % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023-yil yanvar-mart)



(yanvar-mart)



2023-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **262,6** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,0** % ni tashkil etdi.



“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(yanvar-mart)



2023-yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **118,0** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9** % ni tashkil etdi.




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **990** birlikni tashkil etdi, ularning umumiy sonining **2,3** % ni tashkil etdi.



(yanvar-mart)

2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2023-yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **113,0** mlrd. so'mga oshib, **244,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **3 525** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ularning umumiy sonining **8,0** % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023-yil yanvar-mart)

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar


Yashash bo'yicha xizmatlar

12,9 %

87,1 %

Ijara xizmatlari

(yanvar-mart)



2021-yilning yanvar-martiga nisbatan ijara xizmatlari hajmi **36,1** mlrd. so'mga oshib, **2023-yil yanvar-mart** oylarida **169,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,8 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ta'kidlash joizki, viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imkoniyatlari, shuningdek, iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanish darajasiga, ayniqsa, zamonaviy xizmat turlari (AKTdan foydalangan holda)ga bog'liqdir.